

Amaldagi loyihalar

### **Hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlar:**

1. Institutning “Geodeziya, kartografiya va kadastr” kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan Evropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida umumiyligi 990 ming evroga teng bo‘lgan, bajarilishi 2017-2020 yillarga mo‘ljallangan, 585718-EPP-1-2017-1-SE-EPPKA2-CBHE-JP raqamli “DSinGIS: Geoaxborot tizimida doktorantura” nomli loyihasi amalga oshirildi va bu bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.
2. **2016 yil 30 yanvar - 26 fevral** kunlari institut “Avtomobil yo‘llari, zamin va poydevorlar” kafedrasi dotsenti **A.Madatov TEMPUS** dasturining **HIGHVEC 544061-TEMPUS-1-UK-TEMPUS-JPCR** “Avtomagistrallar qurilishi va transport mashinasozligi bo‘yicha magistrlik o‘quv dasturlarini ishlab chiqish” grant loyihasi doirasida Buyuk Britaniyaning Birmingham universitetida tashkil etilgan 1 oylik o‘quv seminarda hamda mazkur qo‘shma loyiha doirasida amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha xorijiy hamkorlar bilan kelishuv yig‘ilishlarida ishtirok etdi.
3. **2016 yil 11-16 mart** kunlari institut “Avtomobil yo‘llari, zamin va poydevorlar” kafedrasi dotsenti **A.Madatov TEMPUS** dasturining **HIGHVEC 544061-TEMPUS-1-UK-TEMPUS-JPCR** “Avtomagistrallar qurilishi va transport mashinasozligi bo‘yicha magistrlik o‘quv dasturlarini ishlab chiqish” grant loyihasi doirasida Portugaliyaning Kashtelu Branku poletexnika institutida tashkil etilgan loyiha koordinatorlari yig‘ilishida ishtirok etdi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalama maxsus ta’lim vazirligining **2016 yil 20 maydagisi 87-03-1378 raqamli** modernnomasiga asosan institut “Qurilish texnologiyasi va uni tashkil etish” kafedrasi dotsenti N.Baxriev joriy yilning **20 iyun - 2 iyul** kunlari Portugaliyaning Kashtelu Branku poletexnika institutida TEMPUS dasturining **HIGHVEC 544061-TEMPUS-1-UK-TEMPUS-JPCR** “Avtomagistrallar qurilishi va transport mashinasozligi bo‘yicha magistrlik o‘quv dasturlarini ishlab chiqish” grant loyihasi doirasida tashkil etiladigan **2 haftalik o‘quv** kurslarda ishtirok etish maqsadida Portugaliyaga xorijiy xizmat safariga yuborildi. Hozirda dotsent N.Baxriev mazkur xorijiy o‘quv kursida o‘z malakasini oshirib qaytdi.
5. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rtalama maxsus ta’lim vazirligining 2016 yil 29 iyuldagagi 89-01/4 raqamli modernnomasiga asosan institut “Avtomobil yo‘llari, zamin va poydevorlar” kafedrasi dotsenti A.Madatov

joriy yilning 30 avgust - 3 sentyabr kunlari Buyuk Britaniyaning Birmingem universitetida TEMPUS dasturining **HIGHVEC 544061-TEMPUS-1-UK-TEMPUS-JPCR** “Avtomagistrallar qurilishi va transport mashinasozligi bo‘yicha magistrlik o‘quv dasturlarini ishlab chiqish” grant loyihasi doirasida tashkil etiladigan loyiha koordinatorlari yig‘ilishida ishtirok etib qaytdi.

6. **530666-TEMPUS-1-2012-1-LT-TEMPUS-JPCR UZWATER** qo’shma loyihasi dasturi bo‘yicha Samarqand OTMlarda **2014 yil 2-4 sentyabr** kunlari seminarlar rejalashtirilgan edi. Ushbu seminarlar davomida institutda Yevropalik hamkor OTM vakillaridan Lars Rayden (Lars Ryden) – Uppsala universiteti professori (Shvesiya), Janis Zaloknis (Janis Zaloksnis) – Latviya universiteti professori (Latviya), Viktoras Rasis (Viktoras Racys) - Kaunas texnologiya universiteti professori (Litva) Jazef Mosey (Jozef Mosiej) – Varshava tabiiy fanlar universiteti professori (Polsha), Linas Klyuchininkas (Linas Kliucininkas) - Kaunas texnologiya universiteti professori (Litva) va Kaunas texnologiya universiteti Xalqaro aloqalar bo’limi xodimi (Litva) Gintari Vilbikine (Gintare Vilbikiene) lar MKK fakulteti magistrlariga ekologiya va suv muommolari bo‘yicha ingliz tilida ma’ruzalar o’qishdi va seminar treyning o’tkazishdi. Seminar treyning va ma’ruzalar mobaynida magistrlar o’zlarini qiziqtirgan savollarga jahon statistkasi va shu sohadagi jahon olimlari fikrlari misolida javob olishdi.
7. **4 sentyabr** kuni Germaniyaning **KNAUF kompaniyasi** bilan hamkorlikda tashkil etilgan maslahat markazining rasmiy ochilish marosimi bo’lib o’tdi. Ushbu tadborda xorijlik mehmonlardan “Knauf Servis”, MDH davlatlari bo‘yicha Knauf guruhi marketing xizmati rahbari Terentyuk Irina va TEMPUS-UZWATER qo’shma loyihasi bo‘yicha tashrif buyurgan delgasiya a’zolari (Viktoras Rasis (Viktoras Racys) - Kaunas texnologiya universiteti professori (Litva) Jazef Moseyj (Jozef Mosiej) – Varshava tabiiy fanlar universiteti professori (Polsha), Linas Klyusininkas (Linas Kliucininkas) - Kaunas texnologiya universiteti professori (Litva) va Kaunas texnologiya universiteti Xalqaro aloqalar bo’limi xodimi (Litva) Gintari Vilbikine (Gintare Vilbikiene)) ishtirok etishdi. Ushbu maslahat markazida KNAUF kompaniyasi va SamDAQIning hamkorlikdagi foaliyatini yanada kengaytirish imkoniyatlari ochiladi, kompaniya tomonidan ishlab chiqariladigan qurilish materiallari haqidagi to’liq ma’lumot o’quv jarayoniga qo’llanilgan holda kompaniya xizmatlarini zamonaviy talablar asosida amalga oshiradigan xodimlar shakillantiriladi.

8. **9 sentyabr** kuni **YuNESKO**ning O’zbekistonida tashrif mobaynida Krista Pikkat institutga tashrif buyurdi. Rasmiy tashrif mobaynida Krista Pikkat institut muzeyi va institutda tashkil etilgan “Tarixiy markazlarni saqlash va boshqarish” YuNESKO kafedrasida bo’ldi va u yerda tashkil etilgan ko’rgazma, kafedra faoliyati va talabalar tomonidan tayyorlangan ishlar bilan yaqindan tanishdi. YuNESKO kafedrasida institut ma’muriyati bilan uchrashuv o’tkazildi. Uchrashuv mobaynida Samarqandning tarixiy ko’rinishini yaxshilash, Samarqandda turizmni rivojlantirish va talabalarni tarixiy muhit loyihamini yaratishga bo’lgan qiziqishini oshirish maqsadida Buxoro va Xiva tajribalaridan keng foydalanish kerakligi ta’kidlandi. Kelajakda arxitektura sohasidagi ko’ngilli xorijiy talabalarni Samarqandga jalg qilish va mahalliy talabalar bilan tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish to’g’risida kelishib olindi.
9. **25 noyabr** kuni **Malayziya Xalqaro Islom universiteti** Muhandislik fakulteti dekanı Md Nur bin Salex boshchiligidagi delegasiya (delegasiya a’zolari: fan doktorlari Fadli Jashi Darsivan, Mayzatulnisa binti Osman, Zahurin binti Halim, Zuraydin binti Ahmad, Ahmad Zamani bin Juson va Maysara binti Ali) institutga tashrif buyurdi. Tashrif mobaynida delegasiya a’zolari institut faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Shuningdek, institutda Germaniyaning KNAUF kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan KNAUF maslahat markazi va **UZWATER 530666-TEMPUS-1-2012-1-LT-TEMPUS-JPCR** xalqaro qo’shma loyihasi doirasida tashkil etilgan ilmiy-o’quv markazlarida bo’lishdi. Institut ma’muriyati kelajakda Malayziya Xalqaro Islom universiteti bilan o’zaro hamkorlik aloqalarini o’rnatish istagini bildirdi. Mazkur universitet bilan hamkorlik aloqalarini o’rnatish bo’yicha muzokara olib borilmoqda.
10. **2015 yil 11-13 fevral** kunlari institutda O’zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Koreya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura-qurilish qo’mitasi hamda O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi hamkorligida tashkil etilgan **Koreyaning Kemyong universiteti delegasiyasini** ishtirokidagi xalqaro seminar bo’lib o’tdi. Seminarda Kemnyong universiteti professorlari tomonidan “Koreyada yangi shaharlarni barpo etishni loyihalash yo’nalishlari”, “Janubiy Koreyaning Sejong shahri misolida shahar transport tizimini loyihalashning yangi usuli”, “Arxitekturaning ekologik muammolari va atrof muhitga bo’lgan munosabat”, “Bino va ko’priklarni qurishda va loyihalashda zilzila xavfini kamaytirish”, “Karkas konstruksiyali zamonaviy baland binolarni qurish metodlari” mavzularida va institut pedagogik jamosi tomonidan “SamDAQIdagi “Arxitektura

maktabi”, talabalarning amaliy ko’nikmalarini va yosh mutaxasislar kvalifikasiyasini oshirish”, “SamDAQIning xorijiy turdosh OTMlar bilan olib borayotgan hamkorligining aniq yo’li”, “Turar joy binolari qurilishida zilzilabardoshlikni ta’minalash”, “O’zbekiston shaharlarining eski qismlarini qaytadan yangilash yo’llari va omillari”, “Samarqanddagi tarixiy yodgorliklarni saqlash muammolari” mavzularida ma’ruzalar o’qildi. Shuningdek seminar davomida ikki tomon professor-o’qituvchilari Shaharsozlik, Yo’l qurilishi, Suv ta’minoti, Bio arxitektura va Yashil arxitektura, Zilzilabardoshlik, Karkas konstruksiyalarni qo’llash kabi mavzularda, hamda Arxitektura va qurilish yo’nalishida Kemyong universiteti va SamDAQIda amal qilinayotgan ta’lim standartlari, ta’lim dasturlari va o’quv rejalar bo’yicha ham fikr almashishdi. Seminar so’nggida SamDAQI va Kemyong universiteti o’rtasida hamkorlikda ish olib borish bo’yicha Anglashuv Memorandumi imzolandi.

**11. 2020 йил «Марказий Осиёдаги маданий ёдгорликларга экологик муҳитнинг хавфини ўрганиш ва хафни таъсирини олдини олиш - ERAMCA» лойихаси билан қатнашиб, 801 376 еврода грантни кўлга киритди**



**12. Қўшма таълим дастурлари ва қўшма факультетлар асосида кадрлар тайёрлашнинг йўлга қўйилганлиги.**

**2019 йил икки томонлама диплом бериш (“2+2” қўшма таълим дастури) Москва давлат қурилиш университети билан 2 та таълим**

йўналишида **65** нафар ҳамда Белорусия миллий техника университети билан З та таълим йўналишида **75** нафар жами **140** нафар талаба тахсил олмоқда.



**13.Халқаро илмий тадбирларнинг ташкил этилиши** СамДАҚИда сўнгги 3 йилда жами 10 та, шундан, 2017 йилда 1 та халқаро ва 2 та республика, 1 та ОТМ миқёсидаги конференциялар, 2018 йилда 1 та республика миқёсидаги, 1 та ОТМ миқёсидаги конференциялар, 2019 йилда эса 1 та халқаро ва 2 та республика миқёсидаги, 1 та ОТМ миқёсидаги конференциялар ўтказилди.